

DINIY MANBALARDA YAXSHILIK QILISH FAZILATINING AKS ETTIRILISHI

Feruza Aminovna Turakulova

Qo`qon davlat pedagogika instituti katta o`qituvchisi

Rayimberdiyeva Maxorat

Egamberdiyeva Ziroat

Qo`qon davlat pedagogika instituti 4-(sirtqi)bosqich talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10215691>

Annotatsiya: mazkur maqolada Yaxshilik insonning ulug` fazilatlaridan biri sifatida diniy ta`limot va manbalarida ulug`lanishi aks ettirilgan rivoyat va oyatlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: yaxshilik, xalq, millat, ota-ona, islom dini, rivoyat, fazilat

Inson yaxshilik qilishni oilasi, ota-onasi va yaqinlaridan boshlashi kerak. Ota-onaga qilingan yaxshilik Allohning roziligiga olib keladi. Ota-ona farzandni kichikligidan tarbiyalab, o`qitib, el orasiga qo`shadigan ulug` insonlardir. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Otalaringizga yaxshilik qilinglar, o`g`illaringiz ham sizlarga yaxshilik qiladilar...", deganlar. (Imom Hokim rivoyat qilgan). Demak, ota-onani hurmat qilgan farzandidan hurmat topar ekan.

Inson yaxshilik yo`lida bardavom bo`lishi to`g`risida muqaddas manbalarda ko`plab ma`lumotlar keltirilgan. Alloh O`zining Kalomining Oli Imron surasi, 92 oyatida deydi: "Suygan narsalaringizdan ehson qilmaguningizcha sira yaxshilikka (jannatga) erisha olmaysizlar. Nimaniki ehson qilsangiz, albatta, Alloh uni biluvchidir". Insonning bu dunyoda yaxshi ko`rgan va ehtiyoji uchun zarur bo`lgan narsalardan biri, albatta, bu moddiy boylikdir. Shu bois, insonlar negadir sadaqa, xayr-ehson qilishda biroz o`ylanib qoladi. Sababi "Men bu molu-davlatni o`zim halol mehnat bilan, qiynalib topganmanku, qolganlar ham shunday qilsa bo`lmaydi-mi? Nega men ehson yoki sadaqa qilishim kerak", dedan noto`g`ri fikrga boradilar. Zero, xayr-ehsondan molu-davlat kamaymaydi, aksincha, ko`payadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "*Sadaqa qilish bilan mol kamaymaydi*", deganlar. Sadaqa qilish bilan kishining mol-mulki kamayib qolmaydi, balki Alloh taolo unga baraka berib, yomonliklardan asraydi, oxiratda esa mukofotini ko`paytirib beradi. Baqara surasining 112- oyatida shunday deyiladi: "... kimki yaxshilik qilgan holda yuzini Allohga topshirsa, unga Robbi huzurda ajr bordur. Ularga xavf yo`q va ular xafa ham bo`lmaslar." Demak, kishi o`z xayri ehson va sadaqasini har xil riyokorlikdan xolis holda amalga oshirsa, savobi nihoyatda ulkan bo`ladi.

Yaxshilik insonlar o`rtasida mehr-oqibat oshishiga, bir-biriga nisbatan o`zaro hurmat va totuvlik hislari ortishiga xizmat qilish bilan birga, hayotdagi ishlarning rivoj topishiga ham sabab bo`ladi. Xalqimiz dinida hech bir narsa Alloh taoloning hikmatidan holi emas, degan fikr o`z isbotini topgan. Musulmon o`lkasida tug`ilib, o`sib yashab kelayotgan o`zbek xalqining qon-qonida islom dinining ko`plab ahkom va shariat masalalari asriy an`ana bo`lib singib ketgan va: "Yaxshilik qil. Suvga sol. Bilsa baliq biladi, bilmasa Xoliq", degan ajoyib hikmatli gap xalqning necha asrlik tajribasida qo`llanilib keladi. Xalqimiz bir umr yaxshilik bilan yomonlikni yosh avlod ongiga singdirib keladi, bu tarbiya borasida esa albatta Alloh taoloning lafzi bo`lmish Qur`oni karimning ushbu surasiga tayanadilar: "Yaxshilik bilan yomonlik baroboar bo`lmas. Sen yaxshilik bo`lgan narsa ila daf qil. Ko`ribsanki, sen bilan o`rtasida adovati bor kimsa xuddi sodiq do`stdek bo`lur". Fussilat surasi 34- oyatidan ayonki, har bir musulmon bo`lgan banda yaxshilikni qilingan boshqa bir bandadan qaytadi degan umidda emas Alloh taoloning roziligini istab qilishi kerak ekan.

Insonlar bir-biriga yordam bersa, dunyo va oxiratda Alloh ulardan qiyinchiliklarni ko'taradi. Zero, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda bunday marhamat qilganlar: "Kim bir mo'min birodarining dunyodagi qiyinchiligini yengillatsa, Alloh u bandaning qiyomat kunidagi qiyinchiligini oson qilib qo'yadi" (Imom Muslim rivoyati).

Islon dini yaxshilikni jannatni qo'lga kiritishga xizmat qiladigan kalitdir deb, insonlarni yaxshilik qilishga undaydi. Zero, yaxshilik insonlarni iymonini sayqallab mustahkamlab boradi. Rasulimiz bir hadisda: "Parvardigor, ikki yoshning o'rtasini yaxshilik ila jam ayla" deb duo qiladilar. Demak, yaxshilikning boshlanishi albatta oiladan. Vaholanki, yangi turmush qurgan oila uchun juda ko'p narsa kerak. Lekin Muhammad (s.a.v) bitta narsani so'rayaptilar - Parvardigor ikki yoshning o'rtasini yaxshilik ila jam ayla. Yosh er-xotinning o'rtasida, uning e'tiqodida, uning fe'l-atvorida yaxshilik bo'lsa, boshqa biz so'ramoqchi bo'lgan narsalarning barchasi uning ketidan keladi.

Yaxshilik sababidan Alloh taolo kasalliklarni aritadi, insondagi xato-kamchiliklarni kechiradi. Inson qo'lidan kelgunicha yaxshilik qilsin. Imkoni bo'lmasa, jilla qursa tabassum qilsin, bu ham yaxshilikdir. Inson yaxshilik qilishi uchun uning qalbi musaffo, taqvoni o'ziga lozim tutgan bo'lishi lozim. Alloh roziligini istab taqvo qilgan insongina birovlariga tili va qo'li bilan ozor bermaydi.

Parvardigor mehribonligi sababli bandasi o'ziga yaqin bo'lishi uchun ko'pgina yo'llarni ko'rsatib qo'ygandir. Alloh aytadi: "Ey iymon keltirganlar, Allohdan qo'rqingiz va Unga yaqin bo'lish yo'llarini istangiz!" (Moida surasi, 35-oyat). Oyati karimada Haq taolo iymon keltirgan bandalarni O'zidan qo'rqishga, taqvoli bo'lishga hamda O'ziga yaqin bo'lishga chaqirgan. Har bir inson o'z imkoniyati doirasida o'zini Alloh roziligiga olib boradigan shunday ishlarni amalga oshirishga harakat qilmog'i lozim. Avvalo, Allohga iymon keltirish, namoz o'qish, ro'za tutish, zakot berish, qodir bo'lsa, haj qilish shuning uchun farz bo'lgan. Bundan tashqari, Alloh taologa yaqinlashtiradigan amallar boya aytilganidek ota-onaga yaxshilik, qiyinchiliklarga sabr qilib, toatda bardavom bo'lish, ne'matlarga shukrona, gunohlariga istig'for aytish, odamlarga ezgulik ulashish, xayr-sadaqa, mahzun dillarga shodlik olib kirish kabilardir. Bularning negizida taqvo yotadi.

Xulosa qilib aytganda, yaxshilik inson martabasini oshiradi. Yurtimizdagi fayzu-baraka, dasturxonlarimizdagi to'kin-sochinlik - yaxshilik qilish fazilati ga ega insonlarimizning xayrli ishlari samarasidir. Xalqimiz azal-azaldan mehr-oqibatli, yaxshilik ulashuvchi millat bo'lib, hatto non yopganda ham muhtarama onalarimiz: "Bolam, mana shuni issiqligida qo'shniga chiqarib ber, savob bo'ladi", deganlar. Milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etib, chin insoniy fazilatlar ila kamol topgan har bir inson avvalo o'z oilasi, yaqinlariga, qolaversa, o'zi yashab turgan jamiyatdagi muhtojlarga imkon qadar yordam berishga, ularning tashvishlarini aritishga harakat qiladi. Inson bir xayrli ishga niyat qilib bel bog'lasa, Alloh uning yo'lini oson qilib qo'yadi. O'sha inson qilgan yaxshiligidan qalbi rohatda bo'ladi.

References:

1. Buyuk siymolar, allomalar. 1 - kitob, - Toshkent, Fan, 1995
2. 1001 mavzuda 1001 hadis (Sharh va ilovalari bilan) - O'zbekiston, NMIU, 2020 yil
3. Oltin Silsila: 1 -juz. Sahihul Buxoriy - Toshkent, "Hilol - nashr", 2016
4. 1001 mavzuda 1001 hadis (Sharh va ilovalari bilan) - O'zbekiston, NMIU, 2020